

BACHADON BO‘YNI SARATONI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Maxmudova Jasmina Parda qizi

Xodjamova Gulbahor

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bachadon bo‘yni saratonining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi, klinik belgilari, diagnostika usullari va zamonaviy davolash yo‘llari yoritilgan. Kasallikning asosiy etiologik omili sifatida inson papilloma virusi (HPV)ning yuqori onkogen turlari tahlil qilingan. Shuningdek, xavf omillari, asoratlari, bosqichlarga ko‘ra yashovchanlik ko‘rsatkichlari hamda profilaktik choralarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada erta tashxis va muntazam ginekologik ko‘rik kasallikni kamaytirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Bachadon bo‘yni saratoni, inson papilloma virusi (HPV), onkogen serotiplar, Pap-test, kolposkopiya, diagnostika, gisterektomiya, kimyoterapiya, nur terapiyasi, profilaktika, vaksina, metastaz*

Kirish

Bachadon bo‘yni saratoni ayollar reproduktiv tizimining dolzarb onkologik muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash statistik ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu kasallik ayollar orasida uchraydigan xavfli o‘smalar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Kasallikning yuqori tarqalganligi, ko‘p hollarda kech bosqichlarda aniqlanishi va reproduktiv salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi uning ijtimoiy va tibbiy ahamiyatini oshiradi. Zamonaviy diagnostika usullari mavjud bo‘lishiga qaramay, ayollarning profilaktik ko‘riklarga muntazam qatnashmasligi kasallikni erta aniqlash imkoniyatini cheklamoqda. Shu bois bachadon bo‘yni

saratonining etiologiyasi, klinik kechishi, diagnostikasi hamda profilaktikasini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Kasallikning sabablari va xavf omillari

Bachadon bo‘yni saratonining asosiy sababi inson papilloma virusi (HPV), ayniqsa uning 16 va 18-serotiplari hisoblanadi. HPV 16 ko‘proq yassi hujayrali saraton bilan, HPV 18 esa adenokarsinoma bilan bog‘liq. Virus jinsiy yo‘l orqali yuqadi va uzoq muddat davomida organizmda yashirin saqlanishi mumkin.

18 961 ta bachadon bo‘yni saratoni bilan og‘rigan bemorlarda radikal gisterektomiya holati tahlil qilingan meta-analiz quyidagi natijalarni ko‘rsatgan:

- Operatsiya vaqtida asoratlar: 2,4%
- Operatsiyadan keyingi asoratlar: 5,1%
- Qon ketishi: 1,8%
- Siydik yo‘llari shikastlanishi: 0,7%
- Ichak shikastlanishi: 0,3%
- Qayta operatsiya zarurati: 1,2%
- O‘lim darajasi: 0,2%

Bu natijalar radikal gisterektomiya tajribali jarroh tomonidan bajarilganda bachadon bo‘yni saratonining erta bosqichlarini davolashda xavfsiz va samarali usul ekanligini ko‘rsatadi.

Kasallik rivojlanishiga quyidagi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi:

OIV, genital herpes, sitomegalovirus, xlamidioz kabi infeksiyalar

- Immun tizimining zaiflashuvi
- A va C vitaminlari yetishmovchiligi
- Kimyoviy moddalar va radiatsiya ta'siri
- Bachadon bo'yni eroziyasi va displaziyasi
- Erta jinsiy hayot va tez-tez sherik almashish
- Chekish
- Gormonal kontratseptivlarni uzoq muddat qabul qilish

Klinik belgilari

Kasallik dastlabki bosqichlarda ko'pincha simptomsiz kechadi. O'sma kattalashgan sari quyidagi belgilar kuzatiladi:

- Qindan qonli ajralmalar
- Hayz oralig'ida yoki jinsiy aloqadan keyin qon ketishi
- Qorinning pastki qismida og'riq
- Qindan yoqimsiz hidli ajralma
- Siydik chiqarishda noqulaylik
- Bel og'rig'i
- Oyoqlarning shishi
- Vaznning keskin kamayishi
- Umumiy zaiflik va kuchli charchoq

Ushbu alomatlar boshqa ginekologik kasalliklarda ham uchrashi mumkin, shuning uchun aniq tashxis qo'yish muhimdir.

Diagnostika

Bachadon bo'yni saratonini erta aniqlashda quyidagi tekshiruvlar qo'llaniladi:

Pap-test (sitologik tekshiruv)

Kolposkopiya

Tos a'zolari ultratovush tekshiruvi (UZI)

O'pka va ichak rentgen tekshiruvlari

Jigar va buyrak UZI

Muntazam ginekologik ko'rik kasallikni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Davolash usullari

Davolash kasallik bosqichiga bog'liq. Dastlabki bosqichlarda a'zoni saqlab qoluvchi usullar qo'llaniladi:

Konussimon amputatsiya

Elektr jarrohlik ekssisiyasi

Yuqori amputatsiya

Kasallik rivojlangan bosqichda bachadonni olib tashlash (gisterektomiya), tuxumdonlarni olib tashlash, shuningdek kimyoterapiya va nur terapiyasi qo'llaniladi. Ko'pincha jarrohlik usuli qo'shimcha ravishda kimyoviy yoki nur terapiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Asoratlari va bashorat

Kasallik quyidagi asoratlar bilan xavflidir:

Boshqa organlarga metastaz berishi

Limfa tugunlariga tarqalishi

Bepushtlik



Kimyoterapiya oqibatida toksik shikastlanishlar

Besh yillik yashovchanlik ko'rsatkichlari:

1-bosqich — 90%

2-bosqich — 75%

3-bosqich — 30–40%

4-bosqich — 10%

Oldini olish

Profilaktika quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Har yili ginekologik ko'rikdan o'tish

Pap-testni 3–4 yilda bir marta topshirish

Kolposkopiya tekshiruvi

Sog'lom turmush tarzi

HPV ga qarshi “Gardasil” vaktsinasi kasallikning oldini olishda samarali hisoblanadi. Emlash odatda 9–12 yoshli qizlarga tavsiya etiladi va 3 bosqichda amalga oshiriladi.



yuqori bo‘lib, bemorlarning yashovchanlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Shunday ekan, ayollar o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan yondashishi va profilaktik choralarga qat’iy rioya qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Cervical cancer. – Geneva: WHO, 2023.
2. International Agency for Research on Cancer (IARC). Global Cancer Observatory: Cervical Cancer Statistics, 2022.
3. Berek J.S., Hacker N.F. Berek & Hacker’s Gynecologic Oncology. – 6th ed. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2021.
4. DiSaia P.J., Creasman W.T. Clinical Gynecologic Oncology. – 9th ed. – Elsevier, 2017.
5. American Cancer Society. Cervical Cancer Prevention and Early Detection, 2023.
6. National Comprehensive Cancer Network (NCCN). Clinical Practice Guidelines in Oncology: Cervical Cancer, 2024.
7. Bosch F.X., Lorincz A., Muñoz N. et al. The causal relation between human papillomavirus and cervical cancer. – Journal of Clinical Pathology, 2002. SJIF 5.219



8. Schiffman M., Castle P.E. Human papillomavirus and cervical cancer. – The Lancet, 2007.
9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Onkologik kasalliklar bo‘yicha milliy klinik protokollar, Toshkent, 2022.
10. Абдурахмонов А.А. Ginekologiya va onkoginekologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.